# Matematika fanini o’qitishda hamkorlik

2020-yil 3-dekabr kuni O’zR FA Matematika instituti direktori o’rinbosari G’olibjon Botirov, katta ilmiy xodim Erkinjon Karimov, Toshkent Xalqaro ta’lim universiteti rektori Ulug’bek Qosimxodjayev va Finlandiyaning O’zbekistondagi faxriy konsuli Alisher Jo’rayevlar ishtirokida Finlandiyaning Skill Grower (https://www.skillgrower.com/vanhemmille) onlayn platformasi asoschisi Pasi Savola bilan onlayn muloqot o’tkazildi.

Onlayn muloqotda Finlandiyada matematika fanini o’qitishda innovatsion yondashuvlarni o’rganish va ularni O’zbekiston ta’lim tizimiga joriy etish borasida o’zaro fikr almashildi.